

TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar-mart*



TOSHKENT VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni **3 007,0** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **13,5** ming kishiga yoki **0,5 %**ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 504,6** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **50,04 %**), qishloq aholisi soni **1 502,4** ming kishi (**49,96 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3 007,0 *ming kishi*

Tabiiy o'sish

+13,5 *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



50,04%

Qishloq



49,96

Aholining tabiiy harakati, kishi


	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	o'sish, kamayish, +/-	2022- yil	2023- yil
Tug'ilganlar	17 153	16 713	-440	23,6	22,6
O'lganlar	3 124	3 247	123	4,3	4,4
Nikohlar	4 572	3 274	-1 298	6,3	4,4
Ajralishlar	1 264	1 283	19	1,7	1,7
Ko'chib kelganlar	6 922	6 416	-506	9,5	8,7
Ko'chib ketganlar	6 707	6 309	-398	9,2	8,5

Toshkent viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar


2023- yil yanvar-mart



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, Toshkent viloyatida doimiy aholisi sonining **30,0** %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,7** %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **13,3** %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Jinsi bo'yicha aholi tarkibi
2023- yil 1- aprel holatiga

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi
1- aprel holatiga, kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, %da
Viloyat bo'yicha:	2 953 941	3 007 026	101,8
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	53 012	54 547	102,9
Olmalik	136 016	142 669	104,9
Angren	175 262	179 705	102,5
Bekobod	100 474	102 612	102,1
Chirchiq	165 581	168 861	102,0
Ohangaron	40 293	40 920	101,6
Yangiyo'l	80 359	82 456	102,6


	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, %da
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	108 760	110 696	101,8
Ohangaron	107 611	109 606	101,9
Bekobod	161 125	163 754	101,6
Bo'stonliq	173 356	175 724	101,4
Bo'ka	130 733	133 124	101,8
Quyichirchiq	112 457	114 565	101,9
Zangiota	168 081	168 036	100,0
Yuqorichirchiq	135 230	137 868	102,0
Qibray	173 433	173 567	100,1
Parkent	172 888	175 696	101,6
Piskent	103 930	102 032	98,2
O'rta Chirchiq	133 406	135 377	101,5
Chinoz	140 017	143 379	102,4
Yangiyo'l	193 080	197 943	102,5
Toshkent	188 837	193 889	102,7

Aholi soning viloyat hududlarida 2023- yil 1- aprel holatiga eng ko'p aholi soni Yangiyo'l tumani 102,5 % ga va Toshkent tumanida 102,7 % ga aholi soni o'sgan.

Hududlar kesimida Piskent tumanida (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,2 %) aholining eng ko'p pasayishi kuzatildi.

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti (%)

2023- yil yanvar-mart, kishi




2023- yil yanvar-mart oylarida tug‘ilganlar soni 16 713 kishini tashkil qildi va 2022- yilning shu davriga (17 153 kishi) nisbatan -440 taga kamaygan. Shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 22,6 promilleni tashkil qildi.




O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart, kishi




2023- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **43,8** %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **28,1** %i – o‘simtalardan, **12,5** %i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **9,4** %i boshqa kasalliklardan, **6,2** %i – yuqumli va parazitari kasalliklardan vafot etganlar.

VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar mart, kishi



2023- yil yanvar–mart oylarida 3 247 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etdi.




QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-mart, birlik



Nikoh tuzish koeffitsientining avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sishi Parkent tumanida (7,7 promillega) kuzatiladi. Nikoh koeffitsiyentining eng ko'p pasayishi Ohangaron shahar (1,5 promillega) va Toshkent tumanida (2,8 promillega) kuzatiladi.




NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-mart, birlik




2023- yil yanvar-mart oylarida **1 283** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,7** promilleni tashkil etgan.



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart

farzandsiz ajrashgan



1 nafar
farzand
bilan
ajrashgan

2 va undan ortiq farzand bilan ajrashgan

2023- yil yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **62,7%** i farzandsiz, **19,6%** i bitta farzand bilan va **17,7%** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari
(yanvar - mart)
(kishi)

Hudud nomi	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosı	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
Viloyat bo'yicha:	6 922	6 416	6 707	6 309	215	107
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	139	190	122	72	17	118
Olmalıq	306	380	293	328	13	52
Angren	247	242	272	313	-25	-71
Bekobod	155	157	182	148	-27	9
Chirchiq	747	581	468	505	279	76
Ohangaron	221	209	99	90	122	119
Yangiyo'l	241	266	140	194	101	72
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	110	71	169	163	-59	-92
Ohangaron	163	225	151	218	12	7
Bekobod	118	119	215	231	-97	-112
Bo'stonliq	225	218	276	401	-51	-183
Bo'ka	102	100	201	193	-99	-93
Quyı Chirchiq	262	132	215	295	47	-163
Zangiota	769	639	1 001	512	-232	127
Yuqori Chirchiq	535	265	378	359	157	-94
Qibray	765	557	531	619	234	-62
Parkent	44	108	207	132	-163	-24
Piskent	116	116	152	230	-36	-114
O'rta Chirchiq	303	358	764	292	-1 989	-1 218
Chinoz	234	276	122	213	248	391
Yangiyo'l	484	512	387	392	-1 131	605
Toshkent	636	695	362	409	872	1 402

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.